



## **YANGILANISH STRATEGIYASIDAN BARQAROR RIVOJLANISH SARI YO'L**

**G'ofurova Sabrina**

*Qarshi davlat universiteti*

*Filalogiya va tillarni o'qitish :o'zbek tili yo'nalishining 1-bosqich talabasi  
sabinagofurova575@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan so'ng Respublikada ijtimoiy,siyosiy ,xavfsiz va eng muhimi barqaror davlat shakllanishi uchun olib borilgan islohotlar va davlatlar orasida reytingni yuksaltirish uchun qabul qilingan strategiyalar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Strategiya,reyting,indekslar,ustuvor yo'nalishlar,davlat va jamiyat,iqdisodiyot,xavfsizlik*

### **KIRISH**

“ Davlat”, “Siyosat” kabi indekslarning rivojlanishi Xalqaro reyting bilan bog'liq.Hattoki,raqamlashtirilgan islohotning kelib chiqishi reytingning o'sishi bilan sodir bo'lib,shunga o'xshash reytinglarning rivojlanishini bevosita 2017-2021 yilga mo'ljallangan “HARAKATLAR STRATEGIYASI” boshlab bergan.Avvalo, strategiya so'ziga nazar soladigan bo'lsak, STRATEGIYA bu-uzoqqa boruvchi ta'sir vositalari va uslublari; maqsadni istiqbolli,dinamik aniqlab olish.Bu so'zdan kelib chiqadiki, O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanishi uchun oldiga turli xil maqsad va vazifalarni qo'yib olgan.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari” to'g'risidagi 4210-sonli Farmoni 2017-2021 yilga mo'ljallangan “Harakatlar strategiyasi” zaminida qabul qilingan.Bu strategiya O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reytingdagi o'rnini holis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlar hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasining har bir takomili ranglar asosida belgilab qo'yilgan bo'lib,mamlakatni rivojlantirish bo'yicha 5ta ustuvor yo'nalish keltirilgan:

1.Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish(moviy havorang-osmon va toza suv ramzi,Amir Temur davlat bayrog'ining rangi).

2.Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish(siyohrang-qonun ustuvorligi va or-nomuslik ramzi).

3.Iqdisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish(tillarang-iqdisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi)



4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (qizil rang - hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi).

5. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat oq rang-tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).

Mamlakatimizda Mustaqillik yillarida keyin amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar ya'ni HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN TARAQQIYOT STRATEGIYASIGA o'tish, milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq tartibotini, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Harakatlar strategiyasi tugab, Taraqqiyot strategiyasiga o'tish davlatni yana bir rivojlanishiga turtki bo'ldi, shuning uchun "TARAQQIYOT STRATEGIYASI"ni bir nom bilan "YANGILANISH STRATEGIYASIDAN BARQAROR RIVOJLANISH SARI YO'L" desak mubolag'a bo'lmaydi.

Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo'nalishlari, shubhasiz, davlatni eng yaxshi taraqqiyot etishiga, rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy olishiga qartilgan bo'lib, u quyidagi 7 yo'nalishni o'z ichiga oladi.

2022-2026 YILLARGA  
MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT  
STRATEGIYASI

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

3. Milliy iqdissodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib boorish.

Davlatning ravnaqi uchun xizmat qiladigan ushbu strategiyalar 5 va 7 bosqichdan iborat bo'lib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda, alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutgan.



Xulosa qilib aytganda, HAKIKATLAR STRATEGIYASI va TARAQQIYOT STRATEGIYASI O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan bo'lib, xalq bilan ochiq muloqot asosida tayyorlangan va davlatning, jamiyatning rivojlanishida asosiy yo'nalishlarini belgilab, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va tashqi siyosat bo'yicha keng qamrovli islohotlarni o'z ichiga olgan. Eng muhimi davlatning rivojlanishida hali-hamon ishtirok etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -T, 2017

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida/(PF-60-SON, 28.01.2022-Y)

3. Mirziyoyev SH.M .Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017

4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017